BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING INKLYUZIV KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Abduvositova Sanam Faxriddinovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Mustaqil tadqiqotchi
+99899 654 00 66
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23230284

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Kommunikativ ko'nikmalar bolaning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi, o'z fikrini ifodalashi, suhbatdoshini tinglashi, muloqot vaziyatiga mos verbal va noverbal vositalardan foydalanishi hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishishining muhim omili sifatida talqin etilgan. Inklyuziv sinfda kommunikativ rivojlanishning o'ziga xosligi o'quvchilarning individual imkoniyatlari, alohida ta'lim ehtiyojlari va kommunikativ tajribasidagi farqlar bilan bog'liq holda ochib berilgan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tahlil asosida kommunikativ ko'nikmalarning motivatsion, kognitiv-lingvistik, interaktiv, perseptiv-empatik va refleksiv komponentlari ajratilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ ko'nikma, muloqot, alohida ta'lim ehtiyojlari, kommunikativ kompetensiya, tengdoshlar hamkorligi, pedagogik texnologiya, differensial yondashuv, ijtimoiy ishtirok.

Abstract: The article examines the pedagogical and methodological foundations for developing communicative skills among primary school students in inclusive educational settings. Communicative skills are considered an essential prerequisite for children's active participation in the educational process, cooperation with peers, expression of their own ideas, attentive listening, appropriate use of verbal and non-verbal means of communication, and participation in social interaction. Particular attention is given to the specific characteristics of communicative development in inclusive classrooms, taking into account differences in students' individual abilities, special educational needs, and communicative experience. Theoretical analysis, comparison, systematization, generalization, and pedagogical modelling were employed as research methods. The analysis identified motivational, cognitive-linguistic, interactive, perceptual-empathic, and reflective components of communicative skills.

Keywords: inclusive education, primary education, communicative skills, communication, special educational needs, communicative competence, peer interaction, pedagogical technology, differentiated approach, social participation.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining insonparvarlik paradigmasi har bir bolaning individual imkoniyatlari, rivojlanish sur'ati va ta'lim ehtiyojlaridan qat'i nazar sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashni nazarda tutadi. Mazkur tamoyil inklyuziv ta'limning mohiyatini tashkil etib, umumta'lim

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

muhitini faqat bilimlarni o'zlashtirish makoni sifatida emas, balki turli individual xususiyatlarga ega bolalarning birgalikda faoliyat yuritishi, o'zaro muloqot qilishi va ijtimoiy tajriba orttirishi uchun pedagogik makon sifatida qayta ko'rib chiqishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori bilan 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash inklyuziv siyosatning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan [1; 2].

Boshlang'ich maktab davri bolaning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalari jadal shakllanadigan rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bola aynan ushbu davrda o'z fikrini mantiqiy ifodalash, savol berish, javob qaytarish, tinglash, suhbatdoshining fikrini tushunish, kelishish yoki asoslangan tarzda o'z pozitsiyasini bayon etish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish kabi kommunikativ harakatlarni egallaydi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda kommunikativ ko'nikmalar o'quv faoliyatining qo'shimcha natijasi emas, balki muvaffaqiyatli o'qish va ijtimoiylashuvni ta'minlovchi tayanch kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv sinfda mazkur muammo yanada murakkab mazmun kasb etadi. Bunday sinfda nutqiy, sensor, kognitiv, emotsional-irodaviy yoki ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari turlicha bo'lgan o'quvchilar birgalikda tahsil olishi mumkin. O'quvchilarning muloqotga kirishish tezligi, nutqni tushunish va ifodalash imkoniyati, ijtimoiy signallarni idrok etishi, suhbatni boshlash va davom ettirish ko'nikmasi ham bir xil bo'lmaydi. Shu sababli barcha bolalarga bir xil kommunikativ topshiriq berish formal tenglikni ta'minlashi mumkin, biroq haqiqiy pedagogik inklyuziyani kafolatlamaydi.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, bolaning umumta'lim sinfiga jismonan joylashtirilishi hali uning tengdoshlar guruhiga ijtimoiy va kommunikativ jihatdan qo'shilganligini anglatmaydi. Inklyuziv ta'limga oid tadqiqotlarda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarning ijtimoiy ishtiroki va tengdoshlar bilan munosabatlari inklyuziyaning muhim ko'rsatkichlari sifatida qaraladi [5; 6]. Demak, inklyuziv ta'limning samaradorligini baholashda "bola sinfda bormi?" degan savol bilan bir qatorda "bola muloqotning teng huquqli ishtirokchisimi?" degan savol ham metodologik ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, tarkibiy komponentlari va metodik mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash hamda kommunikativ rivojlanishning bosqichli metodik modelini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kommunikativ rivojlanish muammosining nazariy asoslarini bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri haqidagi konsepsiyalar tashkil etadi. L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvida bolaning yuqori psixik funksiyalari dastlab ijtimoiy munosabatlar jarayonida, keyinchalik esa individual psixik faoliyat shaklida tarkib topishi ta'kidlanadi [4]. Ushbu nazariy pozitsiya inklyuziv ta'lim uchun alohida ahamiyatga ega: tengdosh bilan muloqot faqat tayyor kommunikativ qobiliyatning namoyon bo'lishi emas, balki uning rivojlanish manbalaridan biri hamdir.

Inklyuziv ta'limning zamonaviy talqinida ijtimoiy ishtirok bolaning sinfga qabul qilinishi, tengdoshlari bilan o'zaro aloqasi, do'stlik munosabatlari va guruhga mansublik hissini o'z ichiga oluvchi ko'p komponentli hodisa sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan kommunikativ ko'nikmalar ijtimoiy ishtirokni ta'minlovchi funksional vosita hisoblanadi. Tengdoshlar vositasidagi pedagogik ta'sirning samaradorligi xalqaro tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Watkins va hammualliflar inklyuziv

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

sharoitda autistik o'quvchilarning ijtimoiy o'zaro ta'sirini rivojlantirishga qaratilgan tengdoshlar vositasidagi intervensiyalarni tahlil qilib, ushbu yondashuv ijtimoiy muloqotni rivojlantirish uchun istiqbolli ekanini ko'rsatganlar [7]. Chang va Locke tomonidan amalga oshirilgan sistematik tahlilda ham tengdoshlar vositasidagi intervensiyalar o'quvchilarning ijtimoiy tashabbusi, javob reaksiyalari va kommunikativ faolligini rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligi qayd etilgan [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA METODLARI

Mazkur tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega bo'lib, inklyuziv boshlang'ich ta'limda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga doir pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirish va metodik model ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni tizimlashtirish, pedagogik umumlashtirish, strukturaviy-komponentli tahlil va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatli yondashuv, ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasi, differensial ta'lim, hamkorlik pedagogikasi va inklyuziv ta'limning ijtimoiy ishtirok tamoyillari tashkil etdi.Kommunikativ ko'nikma mazkur tadqi qotda o'quvchining kommunikativ vaziyatni anglash, suhbatni boshlash va davom ettirish, fikrini tushunarli ifodalash, suhbatdoshini tinglash va tushunish, verbal hamda noverbal vositalardan vaziyatga mos foydalanish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va o'z kommunikativ xulqini baholash imkonini beruvchi o'zaro bog'liq bilim, harakat va munosabatlar tizimi sifatida talqin qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariy-metodik tahlil natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalari beshta o'zaro bog'liq komponent asosida tavsiflanishi taklif etiladi. Motivatsion komponent bolaning muloqotga kirishish istagi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga tayyorligi, kommunikativ tashabbus ko'rsatishi va suhbatga nisbatan ijobiy munosabatini qamrab oladi. Inklyuziv sinfda muloqotga ehtiyojning mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kommunikativ qiyinchiliklarni muntazam boshdan kechirgan bola muloqotdan qochish strategiyasini shakllantirishi mumkin.

Kognitiv-lingvistik komponent o'quvchining kommunikativ vaziyat mazmunini tushunishi, tegishli so'z va grammatik vositalarni tanlashi, savol tuzishi, javob qaytarishi, fikrini izchil bayon qilishi hamda suhbat mavzusini saqlay olishini ifodalaydi. Interaktiv komponent muloqotning o'zaro faoliyat tomonini aks ettiradi. Bunga navbatni kutish, sherikning fikriga javob qaytarish, yordam so'rash va yordam taklif qilish, vazifani taqsimlash, kelishish, bahsli vaziyatda konstruktiv yechim topish kabi ko'nikmalar kiradi. Perseptiv-empatik komponent suhbatdoshning emotsional holati va kommunikativ niyatini tushunish, yuz ifodasi, imo-ishora, ovoz ohangi singari noverbal belgilarni idrok qilish hamda boshqa bolaning kommunikativ xususiyatlariga nisbatan bag'rikeng munosabatni nazarda tutadi. Refleksiv komponent o'quvchining o'z kommunikativ xatti-harakatini anglash va baholash qobiliyatini ifodalaydi: "Men suhbatdoshimni tingladimmi?", "Fikrim tushunarli bo'ldimi?", "Sherigimga gapirish imkonini berdimmi?", "Boshqa usul bilan tushuntirishim mumkinmidi?" kabi savollar kommunikativ refleksiyaning boshlang'ich shakllarini rivojlantiradi.

Mazkur komponentlar asosida inklyuziv boshlang'ich sinf uchun to'rt bosqichli metodik model ishlab chiqildi.

Birinchi - motivatsion-moslashtiruvchi bosqichda sinfda psixologik xavfsiz va kommunikativ jihatdan qulay muhit yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. "Ism va harakat", "Mening qiziqishim", "Bizning umumiy jihatlarimiz", "Yaxshi so'zlar doirasi" kabi qisqa kommunikativ mashqlar orqali bolalarda bir-biriga murojaat qilish, javob kutish, tengdoshini qabul qilish va muloqot tashabbusi

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu bosqichda kommunikativ qiyinchilik xato yoki kamchilik sifatida baholanmasligi zarur.

Ikkinchi - kommunikativ-faollashtiruvchi bosqichda o'quvchilarga kommunikativ harakatlarning aniq modellari o'rgatiladi. "Savol ber - javob ol - davom ettir", "Fikrni tugat", "Rasm asosida dialog", "Bir fikrni uch xil usulda ayt", "Tingla va qayta ayt" singari topshiriqlar orqali dialog boshlash, savol berish, javobni kengaytirish, faol tinglash va fikrni ifodalash ko'nikmalari mashq qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud o'quvchilar uchun ushbu topshiriqlar vizual kommunikativ kartalar, piktogrammalar, tayanch iboralar, tanlov variantlari, qisqa va aniq ko'rsatmalar hamda zarur hollarda alternativ va qo'shimcha kommunikatsiya vositalari bilan qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Metodik differensiallashtirish topshiriqning umumiy maqsadini o'zgartirmasdan, unga erishish vositalarini bolaning imkoniyatiga moslashtirishni nazarda tutadi.

Uchinchi - hamkorlik-faoliyatli bosqich metodikaning markaziy qismi hisoblanadi. Bu bosqichda kommunikativ ko'nikma maxsus mashq obyekti bo'lib qolmay, real hamkorlik vazifasini bajarish vositasiga aylanadi. "Juftlikda yechim top", "Axborot bo'shlig'i", "Birgalikda hikoya yaratish", "Guruh loyihasi", rolli o'yinlar, kichik guruhlardagi muammoli vaziyatlar va tengdoshlar vositasidagi yordam metodlari qo'llanadi. Tengdoshlar vositasidagi intervensiyalar bo'yicha sistematik tadqiqotlarda bunday yondashuvlar ijtimoiy tashabbus, javob reaksiyasi va kommunikativ o'zaro ta'sirni rivojlantirish uchun istiqbolli natijalar ko'rsatgan [7–10]. Biroq inklyuziv metodikaning muhim sharti alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolani doimiy ravishda "yordam oluvchi", boshqa bolani esa "yordam beruvchi" rolida qoldirmaslikdir. Rollar almashib turishi, har bir bola guruh faoliyatiga o'z imkoniyati doirasida mazmunli hissa qo'shishi lozim. Shundagina hamkorlik teng huquqli kommunikativ munosabatga aylanadi.

To'rtinchi - refleksiv-mustahkamlovchi bosqichda egallangan kommunikativ harakatlarning yangi vaziyatlarga ko'chirilishi ta'minlanadi. Dars yakunidagi "Bugun kimni diqqat bilan tingladim?", "Kimning fikri menga yordam berdi?", "Men guruhga qanday yordam berdim?" kabi refleksiv savollar, o'z-o'zini baholash kartalari va kommunikativ portfoliodan foydalanish maqsadga muvofiq. Taklif etilayotgan metodikaning asosiy pedagogik mexanizmi kommunikativ imkoniyat yaratish → pedagogik tayanch berish → tengdoshlar bilan mazmunli o'zaro ta'sirni tashkil etish → tayanchni bosqichma-bosqich kamaytirish → mustaqil kommunikativ faoliyatga o'tkazish ketma-ketligidan iborat.

XULOSA

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining ikkilamchi vazifasi emas, balki bolaning o'quv faoliyati, ijtimoiy ishtiroki va tengdoshlar guruhiga mansubligini ta'minlovchi muhim pedagogik yo'nalishdir. Nazariy-metodik tahlil asosida kommunikativ ko'nikmalarning motivatsion, kognitiv-lingvistik, interaktiv, perseptiv-empatik va refleksiv komponentlardan tashkil topishi asoslandi. Mazkur komponentlarni alohida emas, o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish inklyuziv sinfdagi kommunikativ faoliyatning yaxlitligini ta'minlaydi. Tadqiqotning asosiy metodik natijasi sifatida motivatsion-moslashtiruvchi → kommunikativ-faollashtiruvchi → hamkorlik-faoliyatli → refleksiv-mustahkamlovchi bosqichlardan tashkil topgan kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish modeli taklif etildi.

Metodikaning o'ziga xos jihati kommunikativ rivojlanishni faqat alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchining individual xususiyati sifatida emas, balki o'quvchi, tengdoshlar, pedagog va inklyuziv ta'lim muhiti o'rtasidagi o'zaro ta'sir mahsuli sifatida talqin etilishidir. Shu sababli samarali

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

pedagogik ta'sir o'quvchining kommunikativ imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bir vaqtda sinfdagi muloqot sharoitlarini ham moslashtirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori, 13.10.2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori, 12.10.2021.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Koster, M., Nakken, H., Pijl, S. J., van Houten, E. Being part of the peer group: A literature study focusing on the social dimension of inclusion in education. International Journal of Inclusive Education, 2009, 13(2), 117–140.
6. de Boer, A., Pijl, S. J., Minnaert, A., Post, W. Applying the Contact Theory in inclusive education: A systematic review on the impact of contact and information on the social participation of students with disabilities. Frontiers in Education, 2020, 5, 602414.
7. Watkins, L., O'Reilly, M., Kuhn, M., Gevarter, C., Lancioni, G. E., Sigafoos, J., & Lang, R. A review of peer-mediated social interaction interventions for students with autism in inclusive settings. Journal of Autism and Developmental Disorders, 2015, 45, 1070–1083. DOI: 10.1007/s10803-014-2264-x.
8. Chang, Y. C., Locke, J. A systematic review of peer-mediated interventions for children with autism spectrum disorder. Research in Autism Spectrum Disorders, 2016, 27, 1–10. DOI: 10.1016/j.rasd.2016.03.010.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.